

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.B.Nuriddinova	
Linguistic feature of english riddles	129
S.S.Qozaqova	
"Boburnoma" kompozitsiyasining struktural tahlili.....	133
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	139
N.B.Xudayberganova, D.M.Yuldasheva	
Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish	143
G.Sh.Ergasheva	
Do'stlik va dushmanlik konseptlarining leksik-semantik tahlili: o'zbek va ingliz tillari misolida.....	147
M.A.Abdugodirova	
A comparative semantic study of the mechanisms of expressing "Irony" in English and Uzbek ..	153
M.A.Sayidova	
Xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	159
A.X.Шукурова	
Таҳлили қиёси вожаҳои ифодагари расму оинҳои миллий дар ғўйишҳои тоҷикони Сариосиё ва Самарқанд	163
M.N.Xamdamova	
Yangi O'zbekiston qonunchiligida til masalasi va yurislingvistika.....	172
K.T.Sindorov	
She'riy matnning lingvopoetik tadqiqi masalalari	176
Х.С.Шукурова	
Таҳлили баъзе вожаҳои лексикаи заргарӣ ва ороишӣ дар "Шоҳнома"-и Фирдавсий	180
Г.Р.Ташматова	
Стратегии интеграции обучения языку и предметному содержанию в развитии профессиональной коммуникативной компетенции	187
N.K.Abbasova, M.I.Abdualiyeva	
Weather and natural phenomena in english and russian proverbs: a structural analysis.....	193
N.K.Abbasova, Sh.A Anastasiya	
Integrating AI into esp course to improve language learning through smart and effective strategies	197
I.I.Po'latova	
O'zbek tilidagi evfemizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi	205
O.Q.Xasanova	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	209
K.A.Abdurashidova	
Образы в народных легендах: особенности, роль и поэтика в узбекской и английской традициях.....	213
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs.....	219
D.Y.Kambarova	
Cutting-edge approaches to effective language teaching in the digital era	222
G.T.Khaitova	
O'zbek va ingliz tillaridagi "yaqin-uzoq" oppozitsiya komponentli frazeologik birliklar tahlili	229
M.O.Batirkhanova	
Linguocultural analysis of somatic phraseologisms in proverbs.....	233
J.A.Egamnazarov	
"Boburnoma"ning uch xil tarjimasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qiyosiy tahlili.....	238
K.T.Israilova	
ijtimoiy tarmoqlar tilida muloqotning dinamik evolyutsiyasi	242
M.M.Botirova, Z.G.Qodirova	
Ta'limiy korpus lingvistikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili.....	246
F.K.Aminov	
Multimodal characteristics of women's language on instagram: a discourse analysis of digital identity and engagement strategies	250
Z.M.Sobirova	
Nutqiy tafakkurning neyropsixolingvistik tavsifi.....	254



UO‘K: 891.553.1-1

“BOBURNOMA” KOMPOZITSIASINING STRUKTURAL TAHLILI
СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ СОСТАВА “БОБУРНОМА”
STRUCTURAL ANALYSIS OF THE COMPOSITION OF “BOBURNOMA”

Qozaqova Sayyora Sobitxon qizi 
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada har bir badiiy asar shakl va mazmun xususiyatlariga ko‘ra o‘zining kompozitsion tiplariga ega bo‘lishi, bu asarning qaysi janrda ekaniga qarab, turlicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkinligi, badiiy asar kompozitsiyasi struktur tahlilida uning ichki qurilish tartibini kengroq o‘rganish bilan bir qatorda mazmunining mantiqiy ma‘nosi ijodkor badiiy niyatiga qanchalik muvofiq kelishini kuzatish mumkinligi va shu asosda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari kompozitsiyasi struktur jihatdan tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье каждое художественное произведение имеет свои композиционные типы по особенностям формы и содержания, в зависимости от жанра этого произведения оно может иметь различный облик, при структурном анализе композиции художественного произведения порядке его внутреннего построения наряду с более широким исследованием можно наблюдать, насколько логический смысл содержания соответствует художественному замыслу творца, и на этой основе композиция произведения Захириддина Мухаммада Бабуря «Бабурнома» представляет собой структурно проанализированы.

Abstract

In this article, each artistic work has its own compositional types according to the features of form and content, depending on the genre of this work, it can have different looks, in the structural analysis of the composition of the artistic work, the order of its internal construction along with a wider study, it is possible to observe how the logical meaning of the content corresponds to the artistic intention of the creator, and on this basis, the composition of the work "Baburnoma" by Zahiriddin Muhammad Babur is structurally analyzed.

Kalit so‘zlar: kompozitsiya, badiiy asar strukturasi, badiiy asar matni va uning struktur qurilishi, sirtqi va ichki struktura.

Ключевые слова: композиция, структура художественного произведения, текст художественного произведения и его структурное построение, внешняя и внутренняя структура.

Key words: composition, structure of an artistic work, text of an artistic work and its structural construction, external and internal structure.

KIRISH

Turli adabiyotlarda, ensiklopedik lug‘atlarda kompozitsiya istilohiga turlicha talqin va izohlar berib kelingan. Adabiyotshunoslikka kompozitsiya tushunchasi tasviriy san‘at va me‘morchilikdan kirib kelgan. Bu sohalarda kompozitsiya asarning alohida qismlari birikib, bitta badiiy butunlikni hosil qiladi. Adabiyotshunoslikda esa kompozitsiya adabiy asar qurilishini yaxlit tarzda o‘rganuvchi qismdir. Ba‘zan kompozitsiya termini “arxitektonika” termini bilan muqobil tarzda qo‘llaniladi. Kompozitsiyani tegishli yo‘sinda o‘rganish har bir nazariy tadqiqotga xosdir.

Har bir badiiy asar shakl va mazmun xususiyatlariga ko‘ra o‘zining kompozitsion tiplariga ega. Bu asarning qaysi janrda ekaniga qarab, turlicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Badiiy matnning kompozitsion tiplari epik (syujet tizimidagi alohida lavhalarning o‘zaro mutanosibliigi), lirik (ritm va mazmun uyg‘unligi) va dramatik (sahna va dialogik nutqlarda harakatlilik) janr xususiyatlaridan kelib chiqib farqlanadi, ammo mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lishi ham mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotshunoslik ilmda badiiy asar matni va uning struktur qurilishi yuzasidan juda ko‘p tadqiqotlar amalga oshirilgan. Badiiy asar kompozitsiyasi struktur tahlilida uning ichki qurilish

tartibini kengroq o'rganish bilan bir qatorda mazmunining mantiqiy ma'nosi ijodkor badiiy niyatiga qanchalik muvofiq kelishini kuzatish mumkin.

Ba'zan badiiy asar strukturasi diqqat qaratish, undagi badiiy g'oya va mazmundan yiroqlashuvga olib keladi, degan fikr uchraydi. Bu unchalik to'g'ri emas. To'g'ri ayrim estetik oqimlarda N.Gartman yoki R.Ingardenning fenomenologik struktural tahlili asar mazmunidan holi ravishda olib borilganda shunday qusur bo'y ko'rsatishi mumkin[1].

Strukturalizmdagi shakl, ya'ni strukturaning ijodkor tabiati, mavjud ma'noni kuchaytirishi, hatto yangi ma'noni yaratish iqtidori haqidagi etakchi aqida bu ilmiy oqimning kuchli badiiy asarning qurilishi nuqtayi nazaridan tekshirayotganda ikki turdagi strukturani farqlash zarur bo'ladi. Sirtqi va ichki struktura. Aynan mana bu tajribani asar kompozitsiyasi strukturasi ham tatbiq etish mumkin. Badiiy asar qaysi janrda yozilmasin, ma'lum bo'laklardan tashkil topgan bo'ladi. Bu bo'laklar aslida tashqi kompozitsiya elementlari hisoblanib, badiiy asardagi voqea va his-tuyg'ular harakati hamda syujet rivojida muhim rol o'ynaydi. Bu badiiy asar kompozitsiyasining tashqi strukturasi. Asardagi voqealar rivoji undagi u yoki qahramon xatti-harakatidagi qonuniy aloqadorliklar majmui bo'lib, buni badiiy asar ichki kompozitsion strukturasi sifatida baholash mumkin. Badiiy asar ichki kompozitsiya strukturasi asosan, mazmunga taalluqlidir.

O'zbek adabiyotida struktur adabiyotshunoslik nazariyasiga oid ishlar sanoqligina. Sababi adabiyotshunoslikning bu tahlil yo'nalishi bizning adabiyotshunosligimizda nisbatan yangi sohadir. Bu yo'nalishda I.Yoqubov "Struktural poetika imkoniyatlari[2]", A.Rasulovning "Struktura va strukturalizm[3]", S.Meliyevning "Strukturalizm va struktural tahlil haqida[4]" va "Yangi tanqid: G'arb adabiyotshunosligidagi bir oqim haqida[5]", M.Xolbekovning "Rolan Bart va struktur adabiyotshunoslik[6]" "Matn, intermatn, intermatnlilik[7]", Q.Qahramonovning "Adabiy tanqidda struktur metod talqini"[8], B.Karimovning "Struktural metod"[9], M.Farmonovning "Badiiy matnning o'ziga xosligi (strukturalistik talqinda)"[10] kabi maqolalari e'tiborga molik. Mazkur maqolalarda strukturalizm va uning ayrim nazariy muammolari haqida so'z yuritiladi. Har bir muallif maqolasida strukturalizm va struktural metodning o'ziga xos jihatlari, keng va tor ma'nolari ilmiy asosda sharhlangan, shuningdek, strukturalizm tushunchasi, uning falsafiy, ilmiy, badiiy-estetik hodisa sifatidagi xususiyatlari tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Biz tahlilga tortgan "Boburnoma" asari ichki va tashqi kompozitsion strukturasi o'ziga xos asardir. Bobur o'zining "Boburnoma" asari bilan O'rta Osiyo tarixida, nafaqat O'rta Osiyo, balki jahon tarixida yangi bir janrga asos soldi. Shu sababli ham "Boburnoma" va uning janr xususiyatlariga bag'ishlangan ko'plab izlanishlar olib borilgan va qator fikrlar bildirilgan. Bu borada yozuvchi, adabiyotshunos, tilshunos olim Pirmqul Qodirovning quyidagi fikrlari e'tiborga molikdir: "Bu asarni roman-epopeya deb atash mumkin. Epopeyaning bosh qahramoni esa Boburning o'zidir. Epopeya Boburning o'n ikki yoshida taxtga chiqishi bilan boshlanib, salkam qirq sakkiz yoshida Agrada vafot etishi bilan tugallanishi – bu asarning chuqur o'ylab tuzilgan kompozitsiyasi borligidan dalolat beradi. Bu kompozitsiya Boburning tojkor bo'lgan o'ttiz olti yillik hayot yo'lini qamrab oladi. Shu faktdan kelib chiqib "Boburnoma"ni nasriy shohnoma deb atash mumkin". Asar voqealarining o'zaro mutanosiblikda tasvirlanishi yuqoridagi fikrlarni dalillaydi.

Bu "roman-epopeya" 3 katta qismdan iborat.

1. Birinchi qism "Farg'ona" deb nomlanib, bu qismda asar voqealari tasvirlangan 10 bo'lim keltiriladi. Bu qism voqealari 1494 yil, ya'ni Boburning taxtga chiqishi bilan boshlanib, 1503-yil, ya'ni Farg'ona viloyatida sarson-sargardonlikdagi hayot tasviri bilan yakunlanadi. Ko'rinadiki, bu qism voqealari muallif-qahramon hayotining 9 yilini qamrab oladi.

2. Ikkinchi qism "Kobul" deb nomlanib, bu qismdagi voqealar 7 bo'limda tasvirlanadi. Kobul viloyati tasviri bilan boshlangan voqealar Hindiston safariga otlangan qahramon orzusi bilan yakunlanadi va 1503-1520-yil voqealari tasvirini o'zida aks ettiradi. Bu muallif-qahramon Bobur hayotining 17 yilini qamrab oladi.

3. Asarning yakuniy qismi "Hinduston" deb nomlanib, bu qismdagi voqealar esa 5 bo'limda bayon etiladi. Bu qism oradagi voqealar tasvirida uzilishlar bo'lganligi sababli 1525-yil voqealari tasviridan boshlanadi. va 1529 yil voqealari tasviri bilan yakunlanadi. Bu muallif-qahramon Bobur hayotining atigi 4 yilini qamrab oladi.

Har bir bo'limda keltirilgan voqealar asosiy qahramon Bobur siymosi orqali tutashadi.

TILSHUNOSLIK

Asar kompozitsiyasida qahramon ruhiyatining kaliti sifatida berilgan Boburning o'z she'rlari va boshqa shoirlarning asarlaridan keltirilgan she'riy parchalarning o'rni kattadir.

She'riy parchalar "Boburnoma"da shunchaki san'atpardoqlik yoki rang-baranglik sifatida keltirilmagan. Balki ular asar syujeti va qurilishini mukammallashtirish, shoir tuyg'ular olamining dardli lahzalarini aniq va ta'sirli tasvirlash, mazmun va shaklni boyitishga xizmat qilgan.

"Boburnoma" kompozitsiyasida biron-bir voqea munosabati bilan keltirilgan maqollarning o'rni ham o'ziga yarasha. Asarda turli voqealar bayon etilar ekan, fikr yanada aniq va ta'sirli berish uchun maqollardan keng foydalanadi. Buning bir ahamiyati o'sha tasavvurni kuchaytirmoq bo'lsa, ikkinchi ahamiyati o'zbek xalqi yaratgan maqollarning yoshi to'g'risidagi tushunchamizni kengaytiradi. "Boburnoma"dagi har bir maqol uning besh yuz yildan ortiq fursatdan beri yashab kelayotganidan darak beradi.

V.Y.Zohidov "Boburnoma"da keltirilgan maqollarning ahamiyati to'g'risida bunday deb yozgan edi: "Bobur ularni muvaffaqiyatli ravishda tanlaydi, predmetning mohiyati va katta ijtimoiy masalalar bilan bog'laydi. Shunday qilib ulardan ko'pincha ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim xulosalar chiqaradi"[11].

"Boburnoma"da maqollar hikmatli so'zlar, tasvir etilmoqda bo'lgan voqeaning mohiyatiga xos she'riy parchalar ko'p. Ular o'zbek va fors tillarida keltiriladi.

"Boburnoma"ga Bobur o'zining bir necha maktublarini ham kiritgan. Ular o'zbek adabiyotidagi xat badiiy shaklining namunasi sifatida ahamiyatlidir. Yana bu xatlarda bayon qilingan fikrlar, o'gitlar umumtarbiyaviy mazmunda ekani bilan ham muhim. Shuningdek, asar kompozitsiyasida ham alohida ahamiyatga ega.

"Boburnoma"da Humoyunga bitilgan ikki xat to'laligicha keltirilgan[12]. Bu xatlarning mazmuni ham, shakli ham juda ibratlidir. Xatning kirish qismi uzun emas, aksincha juda ixcham. Ota o'g'liga uni sog'inganligini izhor etib salom yo'llaydi. "Humoyung'a mushtoqliqlar bila sog'inib salom degach,..." shundan so'ng gapning po'skallasi boshlanadi. Ota o'g'liga uning odamlari kelganini xabar qiladi. O'g'lining yuborgan xatlari va hujjatlarini olgani va ahvol bilan tanishganini bildiradi: "...xatlardin va arazdoshtlardin ul yuzdagi va bu yuzdagi kayfiyat va holat mushaxxas va ma'lum bo'ldi".

Humoyunning o'g'il ko'rganligi va bolaga Al'amon deb ot qo'yilganidan ota xabardor bo'lgach, o'z kayfiyatini bayon qilib yozadi:

Shukr bermish sanga haq farzande,
Sanga farzandu manga dilbande.

Bu xatda ikki turkum masalalar to'g'risida so'z boradi. Birinchisi, ota va o'g'il, oilaviy munosabatlar; ikkinchisi davlatni boshqaruv masalalari, davlat ustidan hukmronlik qiluvchi kishining sifatleri qanday bo'lmog'i kerakligi. Bu xatda Bobur g'amxo'r, mehribon, ammo talabchan ota va tarbiyachi, aqlli tadbirli va tajribali davlat arbobi sifatida ko'rinadi.

Ushbu maktubda yozilgan gaplar Bobur podshohning rejalari edi. Komronga va Kobuldagi beklarga farmon berilgani ham bunga dalildir. Ammo Humoyun bu rejalarni amalga oshira olmadi.

Ushbu xatda Boburning hukmronlik qilish qoidalari to'g'risidagi fikrlari juda muhimdir. Bunda ikki masala bor.

Birinchisi podshohning shaxsiyatiga oid. Podshoh g'ayratli, jangovor bo'lmog'i kerak. O'z huzurini ko'zlov, yalqovlik podshohga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun Bobur Humoyunga o'z rejalarni farmon tarzida bildirar ekan, uni shijoat va qat'iyatga undaydi. Bobur o'g'liga xitoban yozadi: "Tengrining inoyati bilan yog'iyarlarni bosib, viloyatlarni olib, do'stlarni shod, dushmanlarni nigunsor qilg'aysiz, inshoollohu taolo. Sizlarning jon tortib, qilich chopmoq mahallaringizdur. Qopuda kelgan ishni taqsir qilmangiz. Garonjonliq bila kohilliq podshohlik bila rost kelmas". Podshoh hamisha odamlar ichida bo'lmog'i, ular bilan hamjihatlikda ish tutmog'i shart. Maktubda Humoyunning o'zini yolg'iz his qilgani qoralanadi. Bobur podshohning yolg'izligi ayb deydi.

"Yana xatlaringda yolg'uzliq, yolg'uzlikkim, debsen, podshohliqta aybdur nechukkim debturlar.

Agar poy bandi rizo peshgir,
Va gar yaksvori sari xeshgir

(Ma'nosi: Agar oyog'ing band bo'lsa rizoni oldingga qo'y, agar tanho suvori bo'lsang, o'z boshingcha bor. Ya'ni jahonga bog'langan bo'lsang boshingga kelgan har narsaga rozi bo'l, agar hech narsaga bog'lanmagan kishi bo'lsang, yo'lingdan qolma, ketaber).

Bu she'rlarning maktubga kiritilmog'i ham aytilgan fikrlarning tasdig'iga xizmat qiladi, ham ularning ta'sir kuchini oshiradi. Shu bilan birga she'r yodda yaxshi saqlanadi. Shuning uchun Humoyun bu she'rlarni xotiradi tutib, otasining maslahatlarini fikrida mustahkamlamog'i mumkin. Yana maktub yoki turli xil boshqa bayonlarda she'riy parchalarning bo'luyi ushbu bayonni nafislashtiradi, uni o'qimoq va uqmoqni engillashtiradi.

"Boburnoma"da ayrim xatlarning mazmunini keltirilmog'i biror maqsadsiz qilinmaydi. Bobur bu xatlar orqali ayrim hodisalarni xabar qiladi, ularga o'z munosabatini bildiradi.

Shayboniyxon Xurosonga tahdid solib yurgan fursatda Husayn Boyqarodan Boburga bir maktub keldi. Bu xatning nusxalari Badiuzzamon Mirzo, Xisravshoh va Zunnunga ham yuborilgan edi. Bobur uni "uzundan - uzoq nishonlar" deb ataydi. Ana shunday kinoyali bahodan keyin Bobur xatning mazmunini e'lon qiladi. Unda Husayn Boyqaro shimoldan tahdid bo'lgan Murg'ob yoqasini berkitganini eslaydi. Hozir ham Shayboniyxon yurush qilib kelsa, Murg'ob yoqasini berkitajagini yozadi. Badiuzzamonga Balx, Shoburg'on, Andhudga odamlar qo'yib o'zi Gurzvon va Darai Zangni berkitmoqni buyuradi. Boburga Kohmard va Ajarni, Xisravshohga Hisor va Qunduzga odam qo'yib, o'zi va inisi Vali Badaxshon va Xatlonni berkitishlarini maslahat beradi.

Bobur bu xatga o'z salbiy munosabatini ochiq bildiradi. Boburning fikricha, Temurbek o'rniga o'lturgan ulug' podshoh Husayn Boyqaro edi. U g'anim ustiga yurmoq o'rniga mudofaaga o'tsa el va ulus o'rtasida umidvorlik qolarmi edi. Buning o'rniga Sulton Husayn Boyqaro "*Tirmiz, Kilif va Karki guzarlarida kema muncha yasang, ko'prik asbobi bu miqdor tayyor qiling, yuqori To'qquz o'lim guzarlarini yaxshi ehtiyot qiling*"[12,103] degan hukmlar chiqarsa, odamlarning ko'ngli ko'tarilgan bo'lar edi, deb xulosa qiladi Bobur.

Yana bir maktub Bobur tomonidan Shohbek bilan Muqimga yuborilgan. Uning mazmuni "Boburnoma"da keltiriladi: "*Sizlarning so'zungiz bila kelduk, o'zbekdek yot yog'i Xurosonni oldi, keling! Ne tavrkim, salohi davlat bo'lsa sizlarning ittifoq va savobdiydingiz bila qaror beral*"[12,156]. Ular esa qo'pol javoblar berganlar. Yana Shohbek Boburga bitilgan xatning o'rtasiga o'ziga mansub bo'lmagan joyga muhr bosgan. Ana shu gustohligi tufayli Shohbekning boshiga mushkilotlar tushdi.

Asar kompozitsiyasida voqealar zanjirini mustahkamlashda va muallif-qahramon ruhiyatini ochib berishda tushlarning ham o'rni juda katta. Asar davomida ikki voqeaning sababi tush bilan izohlanadi. Birinchi tush Boburning Samarqand taxtini olish voqeasi bilan bog'liq. Qahramon Bobur Samarqand taxtini necha kunda olish mumkinligini so'rab amirlariga murojaat qilganda, ular mulohaza qilib turli xil fikrlarni bildirishadi. Shu voqeadan so'ng Boburning Samarqand tahtini o'n to'rt kunda olishining izohi keltiriladi: "*Ushul fursatta ajab tush ko'rdum. Tush ko'rarmankim, hazrati Xoja Ubaydullo kelmishlar, men istiqbollarig'a chiqmishmen, Xoja kelib o'turdilar. Xojaning olig'a g'olibo betakallufroq dastorxon solmishlar. Bu jihattin hazrat Xojaning xotirig'a nima kelmish. Mullo Bobo mening sari boqib ishorat qiladur. Men ham imo bila dedimkim, mendin emastur. Dastorxon solg'uchi taqsir qilibtur. Xoja fahm qilib, bu uzr masmu' tushdi. Qo'ptilar. Uzata chiqtim. Ushbu uyning dolonida o'ng qo'lumdin yo so'l qo'lumdin tutub andoq ko'tardilarkim, bir oyog'im erdin qo'pti. Turkiy dedilarkim, Shayx maslahat berdi. O'shul necha kunda-o'q Samarqandni oldim*"[12,79]. Demak, Xoja Ubaydullo Bobur tushiga kirib, uning Samarqandni olishiga ishonch beradi.

Ikkinchi tush voqeasi bevosita Bobur hayotining asrab qolinishi bilan bog'liqdir. Ahmad Tanbaldan engilib, dushman orasida qolgan Boburni qutqarish uchun Qutluq Muhammad barlos boshchiligidagi navkarlari Bobur turgan joyga etib kelishadi. Shunda Bobur ularning qanday xabar topganini so'raydi: "*Kutluq Muhammad barlos dedikim, Axsidin qochib chiqg'anda sizdin ayrila tushganda Andijon keldimkim, xonlar ham Andijon kelibturlar. Men tush ko'rdumkim, Xoja Ubaydullo dedilarkim, Bobur podshoh Karnon degan kenttadur, borib ani olib kelingkim, podshohliq masnadi anga taalluq bo'lubtur. Men bu tushni ko'rub, xushhol bo'lub, ulug' xon, kichik xong'a arz qildim, xonlarg'a dedimkim, mening besh-olti ini, o'g'lum bor, yana bir necha yigit qo'shungiz, Karnon tarafidin borib xabar olayin*"[12,100]. Bobur hayoti ushbu tush sababli asrab qolinadi.

TILSHUNOSLIK

Yo'qsa, Boburning to'xtagan joyi va hayoti xavf ostida ekanligini qanday bilib olish mumkin bo'lardi?!

Ichki nutqlarning ham asar kompozitsiyasidagi o'rni alohida.

"Boburnoma"ning asosiy qahramoni Bobur o'zining eng chuqur his- kechinmalari, fikr-o'ylari, o'z-o'zini tanqidi va faxriyasini, yuragida nimaiki bo'lsa, hammasini ushbu kitobda bayon etgan. U zamondoshlarining xarakteri va faoliyatini qanchalar ochiq-oydin ko'rsatgan bo'lsa, o'ziga ham xuddi shunday munosabatda bo'lgan. Haqqoniylik Boburning eng asosiy mezoni va asl qoidasi ediki, undan yozuvchi hech qachon chekinmaydi. Bu "Boburnoma"dagi qahramonning, ya'ni Boburning ichki nutqlarida ayniqsa ro'y-rost ko'zga tashlanadi.

"Boburnoma"ning birinchi sahifasi bunday ichki nutq bilan boshlanadi: *"Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati va chahoryori bosofolarning himmati birlan seshanba kuni ramazon oyining beshida tarixi sekkiz yuz to'qson to'qquzada Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshta podshoh bo'ldum"*[12,34]. Albatta, bu so'zlar o'sha fursatdan ancha keyin yozilgan. Lekin bu nutqda ham faxr, ham hayajon, ham shukrona, ham javobgarlik hissini onglav, sezilib turadi. Ayni zamonda bu so'zlar o'sha tuyg'ularning hammasi hayot sinovidan o'tgandan so'ng, bu kechinmalar sohibi katta hayot tajribasi kasb etganidan so'ng yozilgan. Shunday bo'lsada, bu kichik nutq orqali ham boshiga og'ir tashvishlar tushgan o'n ikki yashar bola, ham hayotning ko'p achchiq-chuchugini totib toblangan ulug'sifat bir shaxs o'quvchi ko'z oldida gavdalanadi.

Bobur harbiy va siyosiy voqealarni tasvirlar ekan, ularga o'z munosabatini ichki nutqlar orqali bayon eta boradi. 901 (1495-1496)-yil voqealari ichida Qunduz yaqinida Badiuzzamon Mirzo bilan Hisor hukmroni Xisravshoh o'rtasida bo'lgan urushda, Badiuzzamon qo'shini qo'rqoqlik qilib xandaqlardan chiqmadi. Xisravshoh bu kurashda g'olib chiqdi. Bobur Xisravshohning bu jangdagi muvaffaqiyatini kinoyali ifodalarda baholaydi. Xisravshoh yomonlik, zulm va bedodni o'ziga shior qilgan kishi edi. U ko'p viloyatlar oldi, katta lashkarga ega bo'ldi. Ammo umrida birdan-bir yutug'i faqat shu bo'ldi. Shunga qaramay, Xisravshoh va uning odamlari sardor va mardona degan ot qozondilar. *"Xisravshoh bu o'tar dunyoyi bebaqo uchun va ketar navkari bevafo uchun muncha yomonlik va badnomlikni ixtiyor qilib va muncha zulm va bedod qilmoqni o'ziga shior qilib muncha ulug' viloyatlar olib, muncha qalin navkar va savdar saxlamoq tarhin solib, balki so'ngralar navkar va chokari yigirma-o'ttiz mingta tortib viloyat va parkanoti o'z podshohi va mirzolaridan ortib, umrida qilg'on ishi ushbu bo'ldi. Ushmuncha bila Xisravshoh va tavobining oti sardorliqqa chiqib mardona bo'ldilar"*[12,53]. Xisravshohning Balxda Boysung'ur Mirzoni va uning odamlaridan bir nechtasini qatl etganini yozar ekan, Bobur qattiq g'azab bilan deydi: *"Xisravshoh badbaxt kofiri ne'mat, saltanat dag'dag'asi bilakim, saltanat andog' nokas, behunarlarg'a ne nav etgay! Ne asl, ne nasab, ne hunar, ne hasab, ne tadbir, ne shijoat, ne insof, ne adolat"*[12,71].

Bu ichki nutqda Xisravshohning tubanligi, nokasligiga qarshi yuragidagi nafrat, qahrug'azab va jirkanuvni muallif-qahramon zarracha yashirmaydi, aksincha baland ovoz bilan hayqirib bildiradi. Xisravshohdek pastkashning saltanatga nomunosibligini ko'rsatar ekan, ayni zamonda Bobur saltanat egasi bo'ladigan kishining qanday sifatlariga ega bo'lmog'ini o'zi qanday tasavvur qilishini ham ayon etadi. Boburning fikricha saltanat egalari asl, nasab va hasabdan tashqari hunar, tadbir, shujoat, insof va adolat sohibi bo'lmoqlari shart.

Ba'zan "Boburnoma"da muallifning ichki nutqi voqealar bayonidan qilingan xulosaday eshitiladi. Ular hikmatli gaplarday lo'nda, qisqa va purhikmat.

Masalan Bobur Husayn Boyqaro va o'g'illarining maishatga berilib ketganlarini yozar ekan, o'zicha bunday fikr qiladi:

"Muqarrardurkim, mundoq bo'lg'on kishi andoq shikast topqay va bu nav' o'tgan elga har kim dast topqay"[12,57].

Bobur o'zining ba'zi harbiy harakatlarining natijasiz bo'lganini aytgach, bunday xulosaga keladi: *"Chun saltanat dag'dag'asi va mulkgirlik doiyasi bor, bir qatla ikki qatla ish yurumagan bila boqib o'turub bo'lmas"*[12,65].

Shu aytilganlarga amal qilib, Bobur ikki yuz qirq kishi bilan dadil hujum qilib 906 yili (1500) Samarqandni egalladi. Mahalliy aholining quvvatlariga suyanib bu erda o'z hokimiyatini o'rnatdi va mustahkamladi. Ana shu g'alaba munosabati bilan Bobur ichki nutq orqali xulosaviy fikrlar bayon qiladi.

“Men Samarqand olg’onda o’n to’qquz yoshta edim. Ne ko’p ish ko’rub edim, ne tajriba bo’lub edi. Ikkinchi bukim, mening g’animim Shaybonxonddek purtajribayu va ko’p ish ko’rgan va ulug’ yoshliq kishi edi. Uchinchi bukim, bizga Samarqanddin hech kishi kelmaydur edi. Agarchi shahr eli manga ko’ngulluk edi, vale Shaybonxonning qo’rqunchidin hech kishi bu xayolni qilaolmas edi. To’rtunchi bukim, mening g’animim qo’rg’onda edi, ham qo’rg’on olildi, ham g’animim qochurildi. Beshinchi bukim, bir martaba Samarqand qasdiga kelib, g’animga to’ydurub, ikkinchi martaba kelganda tengri rost kelturdi, Samarqand fath bo’ldi”[12,80].

Bu gaplardan oldin Bobur Sulton Husayn Boyqaroning Hirotni olib g’animi Yodgor Muhammadni qo’lga tushirgani bilan qiyos qiladi. U Sulton Husaynning qulay sharoitda ish tutganini aytadi. So’ngra o’zining sharoiti bilan uni taqqoslaydi.

Bobur shularning hammasini aytib bo’lgach, haqiqat shundayligini ta’kidlab yozadi:

“Bu degonlardin g’araz elga sangi kamurmoq emas, bayoni voqiy bu edikim, mazkur bo’ldi. Bu tiliganlardin maqsud o’zni ortturmoq emas, rosti bu edikim, mastur bo’ldi”[12,81].

Bu ichki nutq Boburning yuragidan chiqqan nidolardan iborat. Uning bosh qismida Sulton Husayn Mirzoning qanday qilib Hirotni qo’lga kiritgani to’g’risida so’z yuritiladi. Uning sabablari ham beshta: 1) sulton ko’p ish ko’rgan, tajribali, katta yoshli podshoh edi; 2) uning dushmani Yodgor o’n etti, o’n sakkiz yoshli betajriba bola edi; 3) dushman ichida turgan Mir Ali Miroxo’r Sultonga kishilar yuborib uni keltirdi; 4) dushman qo’rg’onda emas, bog’da yolg’iz edi; 5) sulton bildirmay kelib dushmanni bosdi. Demak Bobur bilan Sulton Husaynning g’alabasi natija jihatidan o’xshash bo’lsa-da, mohiyat jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Bobur ana shu farqni ishonarli dalillar va hayajon bilan o’z ichki nutqida ochib bermoqda.

Bu ichki nutq hukmron-qahramon Boburning mulohazalaridan iborat.

XULOSA

Bu keltirilgan misollar “Boburnoma” muallifi va qahramonining tarixiy haqiqatni ro’y-rost va oshkor yoritganligidan guvohlik berib turadi.

Shunday qilib ichki nutqlar orqali biz “Boburnoma” qahramonining xarakteri, yuz berayotgan tarixiy voqealarga munosabati bilan tanishamiz. Yana bu qahramonning fikrida hokim bo’lgan, o’y, reja, xulosalarni ko’ramiz. Ichki nutqlar “Boburnoma”ning badiiy qiymatini oshiradi, tarixiy voqealarning ildizi, mohiyati, oqibatlarini va bu voqealarning asar kompozitsiyasidagi o’rni bilan tanishmoqqa yordam beradi.

Nihoyat, bu ichki nutqlar Boburning jonli inson, hayajon va nozik kechinmalarga to’la ruhiy dunyosini ochib beradi, bu dunyoning haqqoniyat, nazokat va tafakkur durdonalari bilan to’lib toshganini namoyon etib turadi.

Xullas, “Boburnoma” juda puxta qurilgan kompozitsiyaga ega asardir. Asar syujetining puxtaligi, asardagi kompozitsion vositalarning aniqlik bilan joylashtirilganligi bu fikrlarni isbotlaydi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Захириддин Мухаммад Бобур. “Бобурнома”. –Т.: “Шарқ” НМАК, 2002, 139-б
2. В.И.Зоҳидов. Бобирнинг фаолияти ва адабий-илмий мероси, “Бобурнома”. Т.1960.с.25
3. Новейший философский словарь. Постмодернизм. - М., 2007. С.636.
4. Болтабоев Ҳ. Адабиётшунослик ва структурал методлар. Ўқув-услубий мажмуа. -Т., 2012.
5. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика / Пер. с фр., вступ. ст. и коммент. Г.К. Косикова. – М.: Прогресс, 1989. – с. 360.
6. Барт Р. Смерть автора / Барт Р. Избранные работы: Семиотика. Поэтика. / Пер. с фр., вступ. ст. и коммент. Г.К. Косикова. – М.: Прогресс, 1989. - с. 384-391.
7. Farmonova M. BADIY MATNNING O’ZIGA XOSLIGI (STRUKTURALISTIK TALQINDA) SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2021 ISSN: 2181-1601
8. Ёқубов. И. Структурал поэтика имкониятлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2006, №3.
9. Расулов А. Бадийлик безавол янгилик. – Т., 2007.
10. Мелиев С. Структурализм ва структурал таҳлил ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. №2, 12-20-б.